
Zamonaviy jurnalistikani rivojlantirish markazi (<https://mjdc.uz/>)

«Iqtisodiy rivojlanish uchun samarali boshqaruv» dasturi doirasida, Buyuk Britaniya hamdo'stlik va tarqqa-yot masalalari bo'yicha Tashqi ishlar vazirligi (FCDO) tomonidan moliyalashtirilayotgan

**DAVLAT IDORALARI BILAN O'ZARO FAOLIYAT MASLAHATCHISI
(KONSULTANTI)** lavozimiga qiziqqan nomzodlarni taklif etadi.

Ish Toshkent shahrida.

Arizalar maddati- 2025 yil 5 yanvargacha.

Rezyumelarni 2025 yil 4 yanvar soat 18:00 gacha cdmjuz@gmail.com elektron manziliga yuborishingiz kerak.

Maosh — shartnomaga asosan.

**EGED dasturi doirasida Davlat hamkorlari bilan o'zaro faoliyat bo'yicha
konsultantining
TEHNIK TOPSHIRIQ VA MALAKAVIY TALABLARI**

Old shartlar

“Zamonaviy jurnalistikani rivojlantirish markazi” Jamoat birlashmasi (keyingi o'rinlarda - ZJRM) va «Taraqqiyot siyosati instituti» Jamoat birlashmasi (keyingi o'rinlarda – TSI) «Iqtisodiy rivojlanish uchun samarali boshqaruv» II yo'nalish (keyingi-EGED) Dasturini amalga oshirmoqdalar.

EGED Dasturi - 2020-2025 yillarda O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston va Qozog'istonda amalga oshirilayotgan Buyuk Britaniya hamdo'stlik va tarqqa-yot masalalari bo'yicha Tashqi ishlar vazirligi dasturi bo'lib uning maqsadi iqtisodiy siyosatni amalga oshirish samaradorligini, mas'uliyatini va shaffofligini oshirishdan iborat.

II yo'nalishning maqsadi– 2021-2024 yillar mobaynida «Iqtisodiy siyosatning shaffofligi va hisobdorligini oshirish» davlat organlari va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda iqtisodiy ma'lumotlarga asoslangan inklyuziv, shaffof va mas'uliyatli rejalashtirish va boshqaruvni yaxshilashga qaratilgan.

EGED dasturi O'zbekistonda iqtisodiy siyosatning shaffofligini va samaradorligini oshirishga, jumladan:

- nogironligi bo'lgan shaxslarning ishga joylashishiga,
- davlat moliyaviy boshqaruvi islohotlarini amalga oshirishga,
- davlat xaridlari sohasida islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirishda davlatni qo'llab-quvvatlaydi.

Ushbu vazifani hal etish doirasida ZJRM va TSI tomonidan ikki komponentda tadbirlar tashkil etiladi:

- O‘zbekistonda EGED dasturining ustuvor sektorlaridagi iqtisodiy siyosatni tushuntirish uchun axborot mahsulotlarini yaratish maqsadida OAV vakillarining ko‘nikmalari oshiriladi va ularga ko‘proq ma‘lumot taqdim etiladi.
- O‘zbekistonda EGED dasturining ustuvor sektorlaridagi jamoatchilikni xabardor qilish, hisobdorlikni oshirish va axborotga kirish imkoniyatini yaxshilash.

ZJRM va TSI birgalikda OAVni siyosatni isloh qilish jarayonlariga muhim hissa qo‘shish, shuningdek, ularning barqaror va inklyuziv rivojlanishning ishtirokchilari sifatida ahamiyatini ta’kidlash va qiymatini ko‘rsatish maqsadida ularning salohiyatini oshirishga ko‘maklashadi. ZJRM va TSI quyidagi tadbirlarni tashkil etmoqda:

- Ma‘lumotlar jurnalistikasi va iqtisodiyot bo‘yicha akselerator (intensiv seminar)- nogironligi bo‘lgan shaxslarning ishga joylashishi, davlat moliyaviy boshqaruvi va davlat xaridlari sohasidagi islohotlarni tushuntirishga qaratilgan.
- Mentorlik dasturi — akselerator yakunlari bo‘yicha jurnalistika jamoalarini kontent ishlab chiqishga yo‘naltirish.
- Axborot kampaniyasi — aholining yuqorida sanab o‘tilgan sohalar bo‘yicha xabardorligini oshirish.
- Tadbir — qiziqish bildirgan davlat organlarining matbuot xizmatlari uchun tadbir

O‘zbekistonda EGED dasturi doirasida vazifalarni samarali amalga oshirish, ZJRM va TSI ijrochi tashkilotlari hamda davlat hamkorlari — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan samarali ish aloqalarini o‘rnatishni talab qiladi. Bu, nogironligi bo‘lgan shaxslarning ishga joylashishi, davlat moliyaviy boshqaruvi islohotlarini amalga oshirish va davlat xaridlari sohasidagi islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur.

Ushbu texnik topshiriqning maqsadi

Ushbu texnik topshiriqning maqsadi — ZJRM va TSI tashkilotlariga nogironligi bo‘lgan shaxslarning ishga joylashishi, davlat moliyaviy boshqaruvi islohotlari va davlat xaridlari sohasida davlat hamkorlari bilan samarali kommunikatsion o‘zaro faoliyatni ta‘minlash, shuningdek, ma‘lumotlar va axborot almashinuvi jarayonlarini tashkil etishdir.

Xizmatlar turlari va natijalari

Konsultantning vazifalariga quyidagi xizmatlar kiradi, ularning taqdim etilishi tegishli mahsulotlar va natijalarning yaratilishiga olib keladi:

1. TSI ko‘magida ZJRM tomonidan tashkil etilgan tadbirlarning mazmunini rejalashtirish va kontent ishlab chiqishda ishtirok etish.
2. Davlat organlari bilan samarali aloqalarni ta‘minlash, spikerlar va mas’ul xodimlarga nutqlar (chiqish) va ma‘lumotlarni tayyorlashda yordam berish.
3. ZJRM tomonidan TSI ko‘magida tashkil etilgan tadbirlarda ishtirok etish.
4. Jurnalistlar jamoalari uchun mentorlarga yordam sifatida tahliliy hisobotlar va ma‘lumotlar to‘plamini tayyorlash.

5. Amaliy hisobotlarni tayyorlashda ishtirok etish.
6. Davlat hamkorlari bilan uchrashuvlarni tashkil etish.

Ishlash/Bandlik darajasi

Ish hajmi to'liq ish vaqtini talab etmaydi, oylik ish kunlari soni kamida 10 ish kuni bo'ladi.

Vazifani bajarish muddatlari

Ushbu /quyidagi texnik topshiriq 2024 yil 15 dekabrda 2025 yil 31 martgacha bajarilishi kerak (2025 yil 30 iyungacha uzaytirilish imkoniyati mavjud)

Xizmatlar to'lovi

Xizmatlar uchun to'lov har oyda, bajarilgan ishlar bo'yicha hisobotlar va ishni tasdiqlovchi aktlarga asoslanib amalga oshiriladi.

Malakaviy talablar

Jalb etilgan konsultant quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- Iqtisodiyot, moliya, statistika, davlat boshqaruvi yoki shu kabi sohalarda oliy ma'lumotga ega bo'lishi;
- Davlat organlarida (davlat moliyaviy boshqaruvi sohasida) kamida 8-10 yillik tajribasi, davlat organida axborot boshqaruvini yaxshi tushunish;
- Davlat xizmatchilari bilan samarali aloqalar o'rnatish qobiliyati;
- Ma'lumotlarni qayta ishlash, statistik axborotlar bilan ishlash, tahliliy hisobotlar va mahsulotlar ishlab chiqish ko'nikmalari;
- Xalqaro loyihalarda ishlash tajribasi afzallik sanaladi;
- OAV bilan ishlash, maqolalar yozish yoki axborot grafikalarini tayyorlash tajribasi afzallik sanaladi;
- O'zbek va rus tillarini erkin bilish.

Konsultant statusiga talablar:

Konsultatsion xizmatlar ko'rsatishga ruxsat beradigan tegishli statusga ega bo'lishi

Hisobot berish va o'zaro faoliyat

Ushbu texnik topshiriqni bajarish jarayonida konsultant ZJRM direktori Sayida SULAYMANOVA va TSI boshqaruvi raisi Nadejda DOBRETSOVA oldida hisobdor bo'ladi.

Konsultantning faoliyatiga doir hisobotlar TSI tomonidan tasdiqlangandan so'ng qabul qilinadi.

Vazifa bajarilishi davomida konsultant boshqa loyiha konsultantlari bilan hamkorlik qilishi, shu jumladan, boshqa konsultantlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlardan foydalanishi kerak. Topshiriq bajarish jarayonida konsultant ZJRM va TSI orqali FCDODan kelgan so'rovlar va takliflarga ham javob berishi lozim.

REKVIZITLAR VA TOMONLARNING IMZOLARI

BUYURTMA BERUVCHI:

NNT «Zamonaviy jurnalistikani
rivojlanishtirish markazi»

Manzil: Toshkent sh., Niyozbek yo‘li, 30.

h/r: 20212000700944534001, «Alokabank»
AT

MFO: 00401

INN: 207287677

OKED: 94120

Tel.: +998977300860, +998903478780

Direktor Sulaymanova S.R.

IJROCHI:

Konsultant_____

/_____/_____